

ISLOMIY MAROSIMLAR

Jumayeva Muattar Zohid qizi

Buxoro Davlat Universiteti,

Tarix va yuridik fakulteti “Buxoro tarixi va arxeologiya” kafedrasi magistranti
Ijtimoiy gumanitar sohalar yo‘nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islom dinida mavjud bo‘lgan marosimlar, ularning insonlar ijtimoiy hayotiga ta’siri va bu marosimlarga qo‘silib ketgan qadimgi dinlardan qolgan ba’zi odatlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Valiyma, aziyra, xatna, vakiyra, vaziyma, aqiyqa, noixa, nikoh to‘yi, kuyovnavkar, hovli to‘yi.

Аннотация: В данной статье рассказывается о ритуалах, существующих в исламе, их влиянии на общественную жизнь людей и некоторых обычаях, оставшихся от древних религий, которые были добавлены к этим ритуалам.

Ключевые слова: Валийма, ази́йра, хатна, ваки́йра, вази́йма, ақи́йқа, нои́ха, нико́ҳ, күёвнавкар, ҳовли тўйи.

Abstract: This article talks about the rituals that exist in Islam, their influence on the social life of people and some customs left over from ancient religions that were added to these rituals.

Key words: Valiyma, aziyra, xatna, vakiyra, vaziyma, akiyka, noikha, nikoh, kuyovnavkar, hovli tuyi.

Diniy marosimlar muayyan dinning talabi, xususiyati, aqidasi va ehtiyojidan kelib chiqib vujudga keladi. Islom dinida o‘tkaziladigan marosimlarning barchasi ijtimoiy va axloqiy ahamiyatga egadir. Bu marosimlar orqali beva-bechoralardan xabar olinadi, muhtojlarga yordam beriladi va ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi.

Ulamolarimiz marosimlar haqida kelgan shar’iy qoidalarni batafsil o‘rganib, tahlil qilib, qanday marosimlar shariatda borligini belgilab berishgan.

Valiyma- kelin tushirish(nikoh to‘yi) marosimi- hanafiy mazhabi bo‘yicha sunnat amaldir. Nikoh to‘yini kuyov taraf kelinning sharafiga uyushtiradi¹.

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Isrof”.-T., 2015. 60-bet.

O‘zbek xalqi nikoh to‘ylarida o‘tkaziladigan ayrim udumlarda qadimiy e’tiqodlar- fetishizm, totemism, shamanism elementlarini uchratishimiz mumkin.

Nikoh kuni kuyov o‘z yaqin do‘stlari bilan kelin uyiga “kuyovnavkar”ga boradi. Kuyov o‘z do‘stlari qurshovida, karnay-surnay va turli qiyqiriqlar sadosi ostida yo‘lga tushadi. Ushbu amallar faqat to‘y shodiyonasini anglatibgina qolmay, yovuz kuchlar, ins-u jinslardan saqllovchi afsungarlik vositasi ham sanalgan. To‘y marosimlarida keksa yoshli, ko‘p farzandli kishilar ishtiroki zarur va o‘ta muhim hisoblangan. Ular to‘y marosimining ma’lum bosqichlarida o‘ziga xos afsungarlik funksiyalarini bajarganlar. Biz buni bo‘lg‘usi kelin sepini tayyorlash jarayonidan boshlab kuzatishimiz mumkin. Odatda, bo‘lg‘usi kelin-kuyovlarning ko‘rpa-to‘shaklarini tikish, ya’ni “ko‘rpa soldi” marosimida bichish-tikish ishlari keksa ayollar tomonidan boshlab berilgan. Bunda nuroniy, ko‘p farzandli ayollar xislatlari bo‘lg‘usi kelin-kuyovga ham o‘tsin degan afsungarlik niyati mujassamlashgan¹.

Keyingi marosim -aziyra ya’ni xatna marosimidir. Islom dinida o‘gil bolalarni xatna qildirish sunnatdir. O‘g‘il bolalarni kichiklik chog‘ida xatna qildirish musulmon xalqlarining tark qilmaydigan odatiga aylangan. Qolaversa, bu ishning inson sog‘ligi uchun qanchalik foydali ekanini bugungi zamon ilmi ham isbotlaydi. Shuning o‘zi Islom shariatida buyurilgan amallarning hech biri behikmat emasligini tasdiqlaydi. Xatna munosabati bilan jonliq so‘yib, ziyofat uyuştiliradi. Xatna bolaning hayotida muhim hodisalardan biri bo‘lgani uchun bu marosim uning haqiga duo olish niyati bilan o‘tkaziladi².

Xalqimiz orasida xatna to‘yi bilan bog‘liq bir qancha kichik udumlar ham mavjud. Masalan, bolaberkitar- xatna qilinishi kerak bo‘lgan bolani yashirib qo‘yish odati. Bu udum hazil tariqasida o‘tkazib keligan bo‘lib, to‘ychilardan biror bir sovg‘a olinib, keyin to‘ybola xatnachi ustaga topib berilgan.

Keyingi islomiy marosimlardan biri Xursa, ya’ni bola tug‘ilishi munosabati bilan o‘tkaziladigan marosimdir. Bu marosimni bizda ayollar uchun qilish odat bo‘lib qolgan. Yangi farzand ko‘rgan onaning to‘lg‘oq va tug‘ishdan xalos bo‘lganiga shukrona sifatida o‘tkaziladi. Yana bir marosim Vakiyra- yangi uy munosabati bilan o‘tkaziladi. Bu marosim bizda “Uy to‘yi” yoki “Hovli to‘yi” deb ataladi. Shukronaning bir turi sifatida va yangi qo‘snilarga o‘zini tanitish maqsadida ushbu marosim tashkil qilinadi³.

Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarida yangi uyga ko‘chib kiriladigan kuni barcha qo‘ni-qo‘shti va qarindosh-urug‘lar chaqirilib albatta jonliq(qo‘y yoki echki) so‘yib xudoyi qilingan. Bu kuni o‘choqqa olov yoqilib qozonga uch qoshiq yog‘ quyilgan. Odatda,

¹ Адҳамжон Аширов. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари”.-Т., 2007. 90-91 бетлар.

² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Isrof”.-Т., 2015. 61-bet.

³ O’sha asar. 62-bet.

bu ish qaynona yoki keksa ayollar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu xonadondan o‘tgan ajdodlar ruhi poklariga atab pishirilgan uch dona qatlama, uch dona chalpak qo‘ni qo‘shnilarga ularashilgan¹.

Birovning safardan qaytib kelishi munosabati bilan o‘tkaziladigan marosim islomda Naqiy'a deb ataladi. Turli sabablarga ko‘ra oiladan, mahalladan uzoqda bo‘lgan shaxs eson-omon yurtiga, oilasiga qaytib kelgani shukronasiga o‘tkaziladi. Bu marosimni safardan kelgan odamning o‘zi yoki biror yaqin kishisi qilishi mumkin. Bunda ham boshqa marosimlarga o‘xhash xursandlik shukronasi, xayr-ehson savobi va duo umidi mavjud. Aqiyqa- bola yetti kunlik bo‘lganidan keyin o‘tkaziladigan marosim².

Islomda aqiyqa qilish ota-onaning burchi hisoblanadi. “Aqiyqa” lug‘atda “yormoq” ma’nosini anglatib, aslida yangi tug‘ilgan bolaning sochiga nisbatan qo‘llangan. Shariatda esa aqiyqa niyat va maxsus shartlar bilan, Alloh taologa shukur sifatida, farzand nomidan so‘yilgan jonlikdir. Bola tavalludining yettinchi kuni sochi olinib, qo‘y so‘yiladi. Aqiyqaga so‘yilgan hayvonning go‘shti faqir miskinlarga tarqatiladi yoki pishirilib odamlarga ziyofat beriladi³.

Vaziyma-motam munosabati bilan qilinadigan marosim. Vaziymaning kuni, hajmi unga pishiriladigan taomning turi va boshqa narsalari belglangan emas⁴.

Xalqimiz orasida motam marosimi bilan bog‘liq urf-odatlar juda ko‘p va ular hududiy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Motam tarkibiga nafaqat marhumni dafn etish bilan bog‘liq, balki motam va u dunyo bilan bog‘liq tasavvur va magik urf-odatlar, turli-tuman tabular, ehson va qurbanliklar, marosimiy yig‘ilar, qabr toshlar, aza marosimlari va liboslari ham kiradi.

Motam marosimlarida yig‘i alohida o‘rin tutadi. Dafn kundagi yig‘ida erkaklar va ayollar baland ovozda dod solib, marsiya aytib yig‘laydilar. Vafot etgan kishiga marsiya aytib yig‘lash dunyoning ko‘plab xalqlarida uchraydi. Bu odat ildizlari ibridoiy davrlarga borib taqaladi. Qadim zamonlarda ibridoiy odamlar nazarida o‘lim hayotning yakunlanishi hisoblanmagan. Jonsiz ko‘rinishda yotgan o‘lik aslida fiziologik va ruhiy hayot bo‘lib, eshitadi va ko‘radi. Islom dinida yig‘lab aytuvchilar-marsiyachilar-noix va noixa deyilib, motam marosimida marhum uchun yig‘lash navha solish deb ataladi⁵.

Musulmonchilik odatiga ko‘ra, marhum dafn etishdan avval suv bilan yuvib poklanadi. Vodiyning aksariyat yerlarida marhumni yuvish mayit yotgan xonaning

¹ Адҳамжон Аширов. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари”.-Т., 2007. 167-бет

² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Isrof”.-Т., 2015. 63-bet.

³ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. “Бахтиёр оила”.-Т., 2013. 309-311-бетлар

⁴ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Isrof”.-Т., 2015. 63-bet.

⁵ Адҳамжон Аширов. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари”.-Т., 2007. 110-бет

yuqori qismida, ya’ni odamlar kam bo‘ladigan joyda bajarilgan. Yerga solongan sholcha yoki palos yig‘ishtirib olingan. So‘ngra yerdan bir ikki ketmon tuproq olib tashlanib suv tushishi uchun chuqurcha qilingan va uning ustiga taxta tashlangan. Marhum yuvib bo‘lingandan keyin dafn marosimi urf-odatlariga ko‘ra mayitga xushbo‘y o‘simpliklar, masalan, atirgul, rayhon qo‘yilgan. Marhumni yuvishdan oldin murda yotgan xonada g‘assollar yoki keksa qariyalar tomonidan mayitga kafan bichilgan. Mayit kafanlangandan so‘ng hali tutilmagan ko‘rpaga o‘ralib, boshining ostiga yostiq teskari qo‘yilgan holda tobutga solinadi. Tobutni xonadondan olib chiqib ketishda bu xonadonda qayta o‘lim bo‘lmasin degan niyatda uch marta yerga qo‘yib ko‘targanlar¹.

Xulosa qilib aytganda, islomiy marosimlar insonlar ijtimoiy hayotida ma’lum ta’sirga ega bo‘lib, uni tartibga soladi, odamlarni hamkorlikka o‘rgatadi. Islom marosimlari muayyan demokratik xarakterga ega, ya’ni ularga rioya qilishda jamiyatdagi turli tabaqalar birdek huquq va majburiyatga egadirlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Адҳамжон Аширов. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари”. -Т., 2007
2. Исо Жабборов. “Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти”.-Т.,2003
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. “Бахтиёр оила”.-Т.,2013
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Isrof”.-Т., 2015.

¹ Адҳамжон Аширов. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари”.-Т., 2007. 113-бет